

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2021 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 4

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyoung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Tolib Enazarov

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

Jo'ra Xudoyberdiyev

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

Manzura Abjalova

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

Dilafroz Muhammadiyeva

“Boburnoma”ning turkiy tillardagi tarjimalarida
paremiyalarning aks etishi.....60

Zoxira Xidraliyeva

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir.....74

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Shahnoza Rahmonova

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

Gulnoza Jo'rayeva

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli
sifatida.....103

Din. Falsafa. Ilohiyot

Bahriddin Umurzoqov

“Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

CONTENT

Linguistics

Tolib Enazarov

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

Jura Khudoyberdiyev

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

Manzura Abjalova

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

Dilafroz Muhammadieva

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”
in turkish languages.....60

Zakhira Khidralieva

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

Literature. Translation studies

Shahnoza Rahmonova

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second
half of the XX century.....90

Gulnoza Jurayeva

Children's comic poetry as a mean of educational and
aesthetic education.....103

Religion. Philosophy. Theology

Bahriddin Umurzoqov

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat
in the work “Rashakhot”.....118

"Boburnoma"ning turkiy tillardagi tarjimalarida paremiyalarning aks etishi

Dilafruz Muhammadiyeva¹

Abstrakt

«Boburnoma» yaratilgan davrdan boshlab turli davrlarda, turfa tillarda soʻzlashgan sharqshunoslar diqqatini oʻziga tortib kelgan va bir necha asrlar davomida kitobxonlarning sevimli kitobiga aylanib ulgurgan. Ammo bir qancha ilmiy ishlarda ayrim maʼlumotlar uchraydi. Oʻzga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni oʻzaro qiyoslab oʻrganish orqali ilmiy qimmatini belgilash oʻzbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini oʻrganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ushbu maqolada ana shu jihatga, «Boburnoma»ning Sharq xalqlarida oʻrganilishi, ularning tarjimalaridagi oʻziga xosliklar haqida soʻz yuritiladi. «Boburnoma»ning tarjimalari haqida yaxlit, mukammal tadqiqot olib borilmagan. Ammo bir necha tadqiqot ishlarida ayrim maʼlumotlar uchraydi. Oʻzga tillarga qilingan tarjimalarning saviyasini aniqlash, ularni oʻzaro qiyoslab oʻrganish orqali asarning ilmiy qimmatini belgilash oʻzbek xalqining jahondagi boshqa xalqlar bilan adabiy-madaniy aloqalarini oʻrganish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Zero, «Boburnoma» dunyo sharqshunoslari yakdillik bilan qayd etganlaridek, insoniyat madaniyatiga qoʻshilgan katta ulush hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: «Boburnoma», «Baburnama», «Vekayi», *memuar, tadqiqot, tarjima, asliyat, qoʻlyozma, nusxa, tarjimon, sharqshunos, ozarbayjoncha, turkcha, qozoqcha, ruscha, ibora, maqol, matal, frazema.*

Kirish

Jahon ilm-fani taraqqiyoti, xususan, tilshunoslik sohasida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining oʻrni va ahamiyati kattadir. Xususan, «Boburnoma» XVI asrgacha boʻlgan ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni qamrab olgan, barcha sohalarda qimmatli

¹ *Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna* – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti katta oʻqituvchisi.

e-pochta: d.muhammadiyeva@mail.ru

ORCID: 0000-0001-6761-462X

Iqtibos uchun: Muhammadiyeva, D. A. 2021. "Boburnoma"ning turkiy tillardagi tarjimalarida paremiyalarning aks etishi". *Ozbekiston: til va madaniyat* 4: 60–73.

ma'lumotlar beruvchi, o'zbek xalqining jahondagi boshqa millatlar bilan adabiy-madaniy aloqalari tarixini yoritishga xizmat qiladigan noyob manbadir. Dunyoning o'ttizga yaqin tiliga tarjima qilinishi asarning teran mazmuni, ta'sirchan uslubi hamda ensiklopedik xarakteri bilan belgilanadi.

Dunyo ilm-fani rivojida Bobur asarlarining ilmiy ahamiyatini asoslash, jumladan, «Boburnoma» tarjimalarini qiyosiy aspektda tahlil qilish, ayniqsa, undagi til birliklarining tarjimada qanday ifodalanishi masalalarini o'rganish borasida qator tadqiqotlar olib borilmoqda. «Boburnoma» tarjima matnlarida qo'llanilgan paremiyalarni aniqlash, ularning ma'no xususiyatlarini o'rganish, statistikasini ishlab chiqish va guruhlashtirish masalasida turlicha yondashuvlar ko'zga tashlanadi. Asarning turkcha tarjimasidagi paremiyalarni o'zbekcha matn bilan struktur-semantik jihatdan qiyoslash orqali tarjima nazariyasi va amaliyoti jarayonida badiiy asar tarjimasiga qo'yiladigan tamoyillarni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Boburnoma» dunyo ilm ahli tomonidan tilshunoslik, adabiyotshunoslik yo'nalishlarida, geografik va tarixiy aspektlarda o'rganilgan. Asar bir necha tillarga tarjima qilingan. Qirqdan ortiq millat «Boburnoma»ni o'z ona tilida mutolaa qilmoqda. «Boburnoma» matnining hali o'rganilishi lozim bo'lgan qirralari juda ko'p. Asar matnining morfologik xususiyatlari, lingvopragmatik jihatlari monografik planda o'rganilishi kerak. «Boburnoma» matni ensiklopedik xarakterda bo'lib, seysmologiya, fizika, biologiya, zoologiya, botanika, tibbiyot sohalariga oid tushunchalar tadqiqi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O'zbek filologiyasi ilmida «Boburnoma»ga bag'ishlangan o'nga yaqin dissertatsiya himoya qilingan. Asarning inglizcha tarjimalari matniga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud.

Tarjima – murakkab jarayon. Tarjimashunoslik rivoji til taraqqiyotining bir qirrası sifatida namoyon bo'lmoqda. Madaniyatlararo farqli belgilar tarjima jarayonida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Turli tipdagi tillarga oid tarjimalar o'zaro farqli jihatlarni yoritishga xizmat qiladi.

Qardosh tillarga oid tarjimalar yuzasidan tadqiqot olib borish o'ziga xos ahamiyatga ega. Avvalo, tillarning umumtaraqqiyot bosqichiga xos xususiyatlari bilan spesifik taraqqiyotiga xos jihatlarni ajratish imkoni tug'iladi. Bunday tadqiqotlar umummadaniy qadriyatlarga ega bo'lgan tillarda farqli belgilarning yuzaga kelish omillari, sabablari haqida ma'lumot beradi.

«Boburnoma»ning ozarbayjoncha tarjimasi

«Boburnoma»ning ozarbayjon tilida ikkita tarjimasi mavjud bo'lib, Ramiz Asker tomonidan qilingan tarjima Bokuda ikki marta nashr etilgan. Ushbu tarjimada (2011) «Boburnoma»ning turkcha (R.R.Arat), ruscha (M.Sale) va o'zbekcha (Porso Shamsiyev) nashrlaridan foydalanilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif Bobur mirzoning shaxsiyati, hayoti va ijodi haqida batafsil to'xtaladi.

Tarjimada har bir shaxs, har bir joy yoki muhim tarixiy voqealar alohida sarlavhalar bilan ajratib berilgan. Asar shu qadar kichik tasniflarga bo'linganki, ba'zi sarlavha ostidagi voqealar bir betga bormaydi [Ramiz Askar 2011]. Masalan, «Sulton Mahmud mirzoning Samarqand taxtiga chiqmog'i» (40-b) yoki «Boysunqur mirzoning Samarqand taxtiga chiqmog'i» (47-b) bo'limlari yarim betdan, «Boysunqur mirzoning Xisravshoh tarafidan o'ldirilmog'i» (85-b) bo'limi 7 qatordan iborat. Sarlavhalarning umumiy miqdori 153 ta.

Tarjima o'zbekcha va turkcha matnga asoslanganligi uchun voqealar izchil yoritilgan, tushib qolgan yoki berilmay o'tib ketilgan holatlar yo'q. Ammo asarning so'nggi 936-yil voqealari¹ 935-yil voqealariga qo'shib yuborilib, shu bilan yakunlangan. Tarjimaning umumiy hajmi 424 betni tashkil qiladi.

Tarjimada maqol va matallar matn ichida asl manbadagidek yozilgan, havolada hozirgi ozarbayjonchada qanaqa ma'no anglatishi berilgan. Masalan: «Deh koca və dərəxtan koca» məsəlini, deyəsən, Axxi üçün söyləmişlər [Ramiz Askar 2011, 23]. («Deh kujo va daraxton kujo» masalini Axxi uchun aytilganga o'xshaydi. – *tarjima bizniki- D.M.*) matn tagidagi izohda esa *Kənd harada, ağaclar harada* (qishloq qayerda, daraxtlar qayerda, - *tarjima bizniki-D.M.*) deb izoh berilgan. Misollar:

Zikri nomero hakimon umri soniy guftand (*b.142.*) – *Həkimlər adın yad edilməsini ikinci ömür saymışlar.* (b.199); teng bo'lmaguncha to'sh bo'lmas (*b.115.*) – *dəng olmayan tuş olmaz* (*b.155*); Kim o'lar holatga yetsa, ul bilir jon qadrini (*b.218.*) – *Kim ölər həlakətə yetsə, ol bilir can qədrini* (*b.321*); Agar sad solmoni va-r yake ro'z, Biboyad raft az in koxi dilafro'z (*b.99.*) – *İstər yüz il, istər bir gün qal, Bu könül aydınladan köşkü tərək edəcəksən* (133); Ne bormoqqa yere muqarrar, Ne turmoqqa yurte muayyan (*b.160.*) – *Nə getmək üçün qərar verilmiş bir yer, nə də durmaq üçün müəyyən bir yurd vardı* (229).

«Boburnoma»ning ozarbayjoncha tarjimasi izohlarga boy,

¹ 936-yil turkcha matnda 5 qator bilan tugagan, o'zbekcha matnda esa qo'lyozmada tugagan o'rni ko'rsatilib, boshqa manbalar asosida to'ldirilgan.

ularning asosiy qismi satr ostida berilgan, diqqatga sazovor joyi shundaki, izohlarda turkcha, ruscha va o'zbekcha nashrlar o'rtasidagi farqlar ochib berilgan. Asar so'ngida tushunarsiz so'z va iboralarga ta'rif berilgan.

Bu haqda tarjimonning o'zi shunday yozadi: *Bu qeydlar va izohlar «Baburnamə»nin türkçə, özbəkçə və rusça nəşrlərində verilən izohlar və bəzi məlumat-soraq mənbələri əsasında tartib edilmişdir. Biz tərcümə boyu mətnaltı haşiyədə bəzi terminlərin mənası açıqlamış, şəxslər, coğrafi məntəqələr və s. haqqında kiçik bilgilər vermişdik. ...Ona görə də burada bəzi ifadə və terminlərin geniş şəkildə açıqlanmasını münasib gördük* [Ramiz Askar 2011, 19]. (Bu qaydlar va izohlar «Boburnoma»ning turkcha, o'zbekcha va ruscha nashrlarida berilgan izohlar va ba'zi ma'lumot-so'roq manbalari asosida tuzilgan. Biz tarjima mobaynida matn osti hoshiyada ba'zi terminlarning ma'nosini izohlagan, shaxslar, geografik hududlar va boshqalar haqida biroz tushuncha bergan edik. ...Shunga ko'ra, bu yerda ba'zi ifoda va terminlarni keng shaklda izohlashni ma'qul ko'rdik. *Tarjima bizniki-D.M.*)

«Boburnoma» qozoqcha tarjimasi

«Boburnoma» qozoq tiliga Bayuzaq Qojabekuly tomonidan 1990-yilda «Baburnama» nomi bilan tarjima qilinadi. Bu tarjima o'zbekcha tanqidiy matn va ruscha tarjima asosida qisqartirilgan holda bosilgan. Keyingi 1993-yilda to'liq tarjima shaklida nashr etilgan, ammo ism ko'rsatkichlari va geografik nomlar xaritasi tushirib qoldirilgan. Tarjimaning kirish qismida muallif Bobur va uning hayoti, «Boburnoma»ning badiiyati va tarkibiy qismlari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Qozoqcha tarjimada voqealar juda kichik-kichik mavzularga bo'linib berilgan. «Boburnoma»dagi aforizmlar, g'azallardan parchalarni Orazaqym Asqar qozoqchaga tarjima qilgan. Nashrni kuzatish mobaynida paremiyalarning o'girilishidagi o'ziga xoslikni aniqladik. Muallif maqollarni so'zma-so'z o'girmaydi, hozirgi qozoqchada mavjud bo'lgan ekvivalentini qo'llash yo'lidan boradi. Masalan, *G'ofil az injo ronda va az onjo monda (G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan)* matali (b.64.) shunday o'girilgan: *Toqal yeshki qudaydan muyiz suraymyın dep, qulag'ınan ayrylypty* (b. 77). Yoki, *«Inonmag'il do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a»* maqoli (b.76.) *«Jau joq deme, jar astynda»* (b.99.) deb tarjima qilingan.

E'tibor bersak, ikkinchi maqolning muqobili aynan Bobur aytmoqchi bo'lgan fikrni ifodalagan. Chunki Bobur do'stining

xoinligini ta'kidlamoqchi, qozoqchada esa atrofnig xatarlarga to'la ekanligiga urg'u qaratilgan. Holbuki, tarjimon aslyatda berilgan maqollarning tarjima tilida mavjud muqobillarini izlashi, ularni saralashi hamda muqobili mavjud bo'lmaganlarini esa qisqa va lo'nda izohlar orqali ifodalashi lozim [Shirinova 2017, 16].

Misollar:

Qopudag'ini qopmasa, qarig'uncha qayg'urur (b.74) – *Өз ауағ'ымен келіп, қолымызғ'а тыскелі тығ'ған јау уеш шығ'ынсыз, жылыстап кетті.*(95), Korhoro bavaqt boyad just, Kori bevaqt sust boshad sust (b.74) – *Der kezinde bitken is paydalıysı, Kүni өtken soң болмайды јай-мәнісі* (95), Uzrash batar az gunoh (b.78) – *Оның ақталғ'аны қылмыстан да јаман* (102), Lazzati may mast donad, hushyoron chi haz (b.108.) – *Mas bileди sharapтың тәтті дәмін, Татпағ'анды демейди ол shat қылатын yemes јаман yeger.*

Ko'rinadiki, tarjimon maqollarni tarjima qilish jarayonida o'z tilida mavjud bo'lgan ekvivalentini qo'llash metodidan foydalangan, biroq tanlangan bu metod o'zini u qadar oqlamagan. Buning oqibatida, «Boburnoma»ning asl ifoda uslubi buzilgan, tasviriylik aks etmagan. Bu holatni gap tuzilishlarining o'zgartirilganligida ham ko'rish mumkin.

«Boburnoma»ning qozoq tiliga ikkinchi tarjimasi Islam Jemeney tomonidan amalga oshirilmoqda.

«Boburnoma» turkcha tarjimasi

«Boburnoma» turk tiliga R.R.Arat tomonidan tarjima qilingan [«Vekayi» 1943, 1946]. «Qutadg'u bilig» hamda «Hibat ul-haqoyiq» kabi asarlar tarjimoni bo'lgan R.R.Aratning tarix sohasiga oid eng qimmatli ishi «Boburnoma» tarjimasi va ushbu asarga yozilgan ikki yuz sahifaga yaqin ma'lumotlaridir.

Yirik matnshunos olim R. R. Arat asarni «Vaqoye» (Bobur xotiroti) nomi bilan 1943-1946-yillarda ikki jild holida nashr ettirgan.

«Boburnoma»ning turkcha tarjimasining tartibi shunday: 1-jild. So'z boshi (01-021), ikki qismdan iborat tarixiy ma'lumotlar (023-0138), tarjimon o'ngso'zi (0139-0143) Vaqoyi'. I birinchi bo'lim – Farg'ona voqealari (1-128). Ilova: Amir Temur shajarasi (Mironshoh – Sulton Mahmud – Abu Said – Umarshayx – Boburshoh tarzida) va Chingizxon shajarasi (Boburning ona ajdodlari shajarasi) har ikkala sulolaning sxemasi. Ikkala sulola Boburshoh shaxsida tutashadi.

2-jild. Boburning To'pqupu saroyi muzeyidagi miniatursasi. II bo'lim. Kobul voqealari (129-284). III bo'lim. Hindiston voqealari

(285-432) IV bo'lim. Ilovalar: shaxs va joy nomlari ko'rsatkichi (437-570), Bobur qo'llagan istiloh va ta'birlarning alifbo tartibidagi lug'ati (571-669), Boburshoh keltirgan turkcha, forsha va arabcha she'riy parchalarning asardagi bet ko'rsatkichlari (671-672), Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari (Bobur qadami yetgan joylar) xaritasi (673-675)[Hayitov 2018, 60].

R.R.Arat «Boburnoma»ning ilmiy nashrini yaratishda asarning 1857-yilda N.Ilminskiy tomonidan e'lon qilingan Qozon bosmasi (Kir qo'lyozmasi) hamda 1905-yilda A. Beverij tomonidan e'lon qilingan London nashri (Haydarobod qo'lyozmasi)dan foydalanadi.

Turkcha matnga professor H. Boyir so'z boshi yozgan. Unda «Boburnoma»ning o'rganilishi, tarjimalari to'g'risida muhtasari ma'lumot beradi. Olim so'z boshida, shuningdek, asar nomlanishi xususida ham bahs yuritadi va asarni "Vekayi" (Vaqoyi) deb nomlash kerak deydi. Hikmat Boyir o'z fikrini quyidagicha dalillaydi:

1. Bobur asarning ikki o'rnida «Vaqoyi» so'zini qo'llaydi.
2. Boburning xolavachchasi – Mirzo Mahmud Haydar «Tarixi Rashidiy» asarida «*Uning bir «Vaqoiy» ya'ni «Tarixi turk»i bor» deydi.*
3. Boburning qizi Gulbadanbegim «Humoyunnoma»ning ilk sahifalarida «*Garchi podsho otamning voqeanomasida bu so'zlar keltirilgan bo'lsa ham....» deydi;*
4. Boburning nabirasi Akbarshohning tarixchisi Abulfazl Alлома «Akbarнома»da Bobur xotiralarini «Voqiyoti Boburiy» deb nomlagan.

«Boburnoma» Movarounnahr, Xuroson, Eron, Afg'oniston va Hindistonda kechgan voqealarning qomusi bo'lishi bilan birga, hijriy qamariy yil hisobida 37 yil-u 7 oy ichida sodir bo'lgan hodisalardan 18 yilu 6 oy davomidagi voqealar bayoni aks etgan bo'lib, qolgan 19 yil voqealar asarda yo'q. Qariyb yana bir «Boburnoma» hajmiga yaqin bo'lgan qismi yozilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan.

«Boburnoma» turkcha tarjimasining diqqatga sazovor bo'lgan jihatlaridan biri kishi ismlari, jo'g'rofiy nomlar ko'rsatkichi A.S. Beverij nashriga ko'ra yaxshilanganligida ko'rinadi. Turk olimining tarjimada matn ko'rsatkichlarini tuzish mahorati keyinchalik matnshunos olimlarimizning bir qancha ishlarida qo'l keldi. Xususan, asarning to'la o'zbekcha nashrlari (1948-1949, 1960, 2002) vujudga kelishida turk olimlari tajribasidan foydalanildi.

Tarjimada, shuningdek, mukammal lug'at, qisqa izoh hamda Bobur shajarasi sxemasi o'ziga xos tarzda aks ettirildi. Ammo olib borilgan qiyosiy tadqiqotimiz asarning turkcha matnida qator kamchiliklar borligini ham ko'rsatdi. Professor H.Boltaboyev tarjimaning

ba'zi kamchiliklari haqida shunday yozadi: «...asarning Haydarobod nusxasida 936 (1529) yil voqealari to'la emas, tarjimon bu o'rinda Qozon nusxasidagi voqealar tasviri bilan to'ldirgan, biroq bob matni to'la emas. Nashrlardagi bu xatolikni Porso Shamsiyev 1960-yilgi nashrda «Boburnoma»ning boshqa tillardagi (xususan, fors tilidagi) tarjimalari asosida to'ldirgan. O'zbekcha nashrga P. Shamsiyev tomonidan ilova qilingan «Bobur qo'l ostiga kirgan joylar daromadining hisobi va Boburshoh farmoni» turkcha nashrga kirmay qolib ketgan» [Hayitov 2018, 73].

Darhaqiqat, ta'kidlanganidek, turkcha nashrda ko'plab xatolar mavjud. Masalan, kishi ismlari, jo'g'rofiy nomlar ko'rsatkichi, ayniqsa, Bobur mirzoning farmonlari to'laligicha keltirilmagan. Matn- da ko'plab uzilishlar bor. Jumladan, boshqa ko'plab tarjimalarda bo'lgani kabi «Boburnoma»ning turkcha matnida ham 914(1509) yil voqealari tamomlanmay qolgan. Shundan keyingi 10-11 yillik voqealar ham yo'q.

Tarjimada 233a sahifadagi «*Ushbu kun mening yaxshi shahbozim yo'qoldi*» jumlasini o'rin olmagan. R.Arat tomonidan tayyorlangan matnda «*Turna ve kekliği fevkelade iyi tutardı – (Shunqorim) turna va kaklikni yaxshi tutardi*» tarzida berilsa (s.261), «Boburnoma»ning S.Hasanov tayyorlagan matnida «*Shahbozim turnani va laklakni yaxshi tutar edi*» deyiladi (b.171.). Kaklik va laklak (laylak) boshqa-boshqa qushlar. Bilamizki, kaklik ovi haqda ko'pgina manbalarda yozib qoldirilgan. Lekin laylakni ovlash haqidagi ma'lumotlarni uchratmaymiz. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, tabdil va tarjimadagi nuqsonlar nafaqat mazmunga, mantiqning buzilishiga, madaniyat, madaniy munosabatlar haqida noto'g'ri xulosaga ham olib keladi. Ammo bu o'rinda turkcha tarjimada o'zbekcha matndagi nuqson to'g'irlanganligini ko'rish mumkin.

S. Hasanov tayyorlagan matndan «Boburnoma»ning 935-yil voqealarini o'qiymiz: «*Tonglasa odina kuni Muhammad baxshi va ba'zilar kelib, mulozamat qildilar. Nomozi peshinga yovuq Juunundin o'tib, Xoja Abdulhaqqa mulozamat qilib, qal'a borib, amma begimlarni ko'rdim*» (b.261).

Asarning turkcha matnida «Nomozi peshinga yovuq» so'zlari uchramaydi. Qolaversa, matnda «*Hoca Abdülhak'a mülazemet ettikten sonra kaleye gidip halalarımı gördüm*» jumlasini *Hoca Abdülhak a mülazemet ettikten sonra kaleye gidip halalarımı gördüm* (s.429). Bu o'rinda tarjimada davr muhiti yoritilmay qolgan, ya'ni «*begim*» so'zi tushib qolib, tarjimadagi milliy koloritga putur yetgan. Bu ikki millat orasida lingvokulturologik o'ziga xosliklar borligini ko'rsatadi.

«Boburnoma»ning deyarli barcha ilmiy nashrlari asosida Qozon va London nashrlari turadi. Shu jumladan, R. R. Arat tomonidan qilingan tarjima ham aynan shular asosida yaratilgan. Bu yerda eng katta nuqson ikkala asos nashr ham arab alifbosida yozilmaganligida namoyon bo'ladi [Hayitov 2018, 82]. Biroq R. R. Arat asardagi har bir so'z va iborani tarjima qilishga nihoyatda ehtiyotkorona yondashadi. So'zning ma'no chegarasidan chiqmasligini ta'minlashga harakat qiladi: *«...ushbu navohida ekanda bizning cherik borib, O'g'ray va Dahonadin oshliq kelturdilar»* [Bobur 2002, 141] jumalari *«Bu civarda iken askerlerimiz Güri ve Dehane taraflarına gidib erzak getirdiler»* tarzida keladi. Matnning o'zbekcha nashrida *O'g'ray va Dahona* deb keltirilsa, turkcha matnda bu so'z «Guri» ya'ni, Qohmirning shimoliy sharqida joylashgan manzil, «Dahona» esa Balxning janubida joylashgan joy nomi sifatida ko'rsatiladi. Bu ma'lumotlarni kitobxonga yetkazish, tabiiyki, tarjimonning bilimi bilan o'lchanadi. Ana shuning uchun ham badiiy tarjimaning asosiy shartlaridan bo'lgan har bir so'zning ma'nosini to'g'ri aks ettirish, asl nusxaning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan saqlab qolish tarjima nazariyasida muhim o'rin tutadi.

Tarjimashunos olim G'. Salomov tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bular quyidagilar:

1. Asl nusxani idrok etishda matn so'zma-so'z idrok etiladi. Mazkur bosqichda tarjimon oldida ba'zi bir qiyinchiliklar turadi. Bularga matnni noto'g'ri o'zlashtirish, yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish, matnda ishlatilgan (masalan, «o'yluq» so'ziga o'xshagan, –ta'kid bizniki – D.M.) ba'zi xos so'zlarning ma'nosiga tushunmaslik kabilar kiradi. R. R. Arat tarjimasini G'. Salomov aytib o'tgan tarjima jarayonining birinchi bosqichi asosida tahlil qilsak, ayrim so'zlar tarjimasidagi qusurlarni hisobga olmasak, bu holatlar ijobiy hal etilganiga amin bo'lamiz.

2. Ikkinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan ishlatilgan uslubiy omillarga e'tibor qilishi nazarda tutiladi. «Boburnoma»ning turkcha matniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, R. R. Arat asarda muallif qo'llagan ayrim so'zlarga qo'shimcha izoh keltiradi. Masalan, kishi nomlari, joy, hayvonot va o'simliklar nomini tarjima oxirida birma-bir interpretatsiyalashtiradi (izohlaydi, sharhlaydi, talqin qiladi). Asardan o'rin olgan xos so'zlar izohini agarda sahifalar kesimida aytadigan bo'lsak, 235 betni qamrab oladi. Demak, bu bosqichdan ham tarjimon o'rinli foydalanadi.

3. Tarjimon muallif tomonidan yaratilgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etishi kerak. Agar tarjimon haqiqiy san'atkor bo'l-

sa, asarda ishtirok etuvchilarning o'ziga xos xarakter xususiyatlari-ni, tilini to'raligicha idrok etib, keng mushohada yuritadi. R. R. Arat «Boburnoma»ni tarjima qilar ekan, uni avval chuqur idrok etish dol-zarb ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. O'zi ham avval asarni o'qib, tushunib, so'ngra tarjimaga kirishganini yozadi. R. R. Arat fikriga ko'ra, «Boburnoma» tarjimasida eng muhim jihat asar qo'lyozmasini imkon qadar chuqur o'rganish, shular asosida avval uning qoralama ilmiy matnini tayyorlash, matn har jihatdan to'g'ri ekanligiga amin bo'lgandan so'nggina nashrdan chiqarish kerak. Biroq vaqt tig'izligi bois, to'g'rirog'i, turk tarixi jamiyatining tarjimoni tezroq nashr et-tirishga bo'lgan talabi evaziga «Boburnoma» tarjimasida ushbu mu-him jihatlariga kam e'tibor qaratiladi.

R. R. Arat tarjimasi G.Salomov aytib o'tgan tarjima jarayoni-dagi uchta muhim bosqichga mos keladi. «Vekayi»da asl nusxaning individual xususiyatlarini saqlab qolishga harakat qilinadi. U, ayniq-sa, asardagi masal va iboralar tarjimasiga alohida e'tibor bilan yon-dashadi:

Ishonmagil do'stungg'a, somon tiqar po'stungg'a (b.76) – Inan-ma dostuna, saman doldurur postuna (s.82);

Dushman ne demas, tushga ne kirmas (b.117) – düşman ne de-mez ve rüyaya ne girmez (s.156);

Safi mag'lubro hue basandast(b.97) – mağlup düşmana bir hey sesi kafidir (s.121);

Teng bo'lmaguncha to'sh bo'lmas (b.115) – denk olmayan bu-luşmaz (s.153) kabi.

Tarixiy asar nashr qilinganidan so'ng qancha ko'p vaqt o'tsa, uni o'giradigan tarjimonning vazifasi shuncha qiyinlasha boradi. Ta-rixiy joy nomlari va o'tmishdagi voqealar bilan bog'liq asarni tarjima qilish yillar o'tgan sayin murakkablashib boradi. Bu holni Boburning «Boburnoma» asarida keladigan toponimik atamalarga nisbatan tar-jimonlar munosabatida ham ko'rish mumkin. Shu bois ham R. R. Arat ba'zi-ba'zida interpretatsiya, ya'ni izohlash usulidan foydalanadi. Shu orqali asardagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zni o'quvchi ongiga yetkazishga harakat qiladi. Masalan: *kizil söğüt – tabulgu, önu süslü elbesi – postini piş berre* singari.

R. R. Aratning matn yaratish va tarjimadagi mahorati voqea-larning bir butunlikda kelishida ko'rinadi. U asl nusxaning nozik in-dividual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan saqlab qo-lishga harakat qiladi. Masalan, tarjimon asardan o'rin olgan maqol, matal, aforizmlar va she'rlarini avval qo'lyozmadagi arab alifbosida-gi shaklini beradi. So'ngra uning tarjimasi keltiriladi:

*(Ko'p ozg'a Tengridur berguvchi,
Bu dargohda yo'qtur kishining kuchi).*

Turkcha tarjimasi: *Çoğu ve azı veren Tanrıdır, bu cihanda insanın kudreti yoktur.*

(Harchi dar oina javon binad,

Pir dar xishti puxta on binad) – Yosh kishi oynaga qarab nimani ko'rsa, keksa odam g'ishtga qarab ham shuni ko'ra oladi.

Turkcha tarjimasi: *(Gencin aynada gördüğünü, ihtiyar pişmiş tuğlada görür).*

R. R. Aratning she'rlar matnini tayyorlashdagi tutgan ushbu yo'li boshqa nashrlarda takrorlanmaydi. Bu usul she'rlar matnini o'z holicha o'qish va tabdil etish imkonini beradi.

Asarning turkcha nashri birinchi jildida Farg'ona voqealari ifodalanadi. Tarjimani «Boburnoma»ning 2002-yil nashri bilan qiyoslaganimizda shu ma'lum bo'ldiki, turkcha matnning birinchi jildida ayrim kamchiliklar mavjud, ammo u ko'p jihatdan matnshunoslik talablariga mos keladi. Farg'ona voqealari «Boburnoma»ning S.Hasanov tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni bilan deyarli bir xil. Tarjimadagi nuqsonlar, asosan, ikkinchi jildida ko'rinadi.

Tarjimon asarda keltirilgan Qur'on oyatlarini tafsiri bilan beradi. Nashrda shaxs nomi, joy va asar ko'rsatkichlari mukammal tarzda keltirilgan. Masalan, oldingi nashrlarda mavjud bo'lmagan qavm-qabila va nasl-nasab nomlari, hayvon va o'simlik nomlari, masal va hikmatli so'zlar, kitob va risolalarning nomlari va izohi tarjimon tomonidan qunt bilan tayyorlangan. R. R. Arat bu o'rinda A.S. Beverij tajribasiga tayangani seziladi.

R. R. Arat tarjima so'nggida ikki yuz sahifadan ziyod ko'rsatkich va izohlar lug'atini tuzadi. «Boburnoma»ning boshqa ilmiy-tanqidiy matnlardan farqli ravishda u asarda keltirilgan har bir shaxs, joy, hayvon nomlariga batafsil to'xtaladi.

«Boburnoma» ham badiiy, ham tarixiy-memuar xarakterda yozilgan asar. Bunday asarlar tarjimondan juda katta mahorat va qunt talab etadi. Asar tarjimasida R. R. Arat qo'llagan transliteratsiya, adyektivatsiya va izohlash metodi bu borada ancha qo'l kelganligini ko'ramiz.

Turkcha tarjimada paremiyalarning ifodalanish statistikasi quyidagicha:

Maqol-matallar va aforizmlar soni o'zbekcha matnda 36ta. Turkcha tarjimada ularning barchasi aks etgan, ya'ni maqol-matal

va aforizmlar 100% tarjima qilingan.

Frazemalar «Boburnoma»da 982 ta. Ushbu frazemalarning 30%i turkcha matnda frazema shaklida aks etgan, qolgan qismi tarjima jarayonida soʻz, soʻz birikmasi, qoʻshma soʻzga aylantirilib tarjima qilingan. Maqol-matal va frazemalarning oʻzbek tilida boshqa tillarga nisbatan koʻproq qoʻllanilishi boshqa tadqiqotlarda ham kuzatilgan.

Xulosa

